

## **2-musiqiy ko'rik-tanlov "The cover up va Aktyor shou"**

Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jligini mexanizatsiyalash muhandislari institutida 2019 - yil 11-noyabrdan 17-noyabrgacha bo'lib o'tadigan, Yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti tashabbusi bilan tashkil etilgan "Yoshlar haftaligi -2019" loyihasining 2-tanlovni ham o'z nihoyasiga yetdi. Yettita fakultetning yetti jamoasi ikkita shartda (har bir shartga 3 daqiqadan) kuch sinashishdi. "The Cover Up va Aktyor Shou" ikkitasi birda musiqiy-ko'rik-tanlovi ham ko'tarinki kayfiyatda 2 soat 30 daqiqa mobaynida juda ko'plab institut talabalarini qamrab oldi hamda yangi iqtidorlarni kashf eta oldi.

O'zbekiston San'at va madaniyat institutidan tashrif buyurgan hakamlar hay'ati jamoalarni baholab borishdi. Tan olish kerak, muhandis-texnik kadrlar tayyorlovchi bizning institutimizda tahsil olayotgan iqtidor egalarini ko'rib mehmonlar ham hayratda qolishdi va talabalar bilan hamkorlikda ish olib borishga tayyorligini bildirishdi. Umuman olganda, barcha jamoalarni 1-o'ringa loyiq deb bilamiz. Lekin, shunday bo'lsada barchasi nisbiyidir. Asosiysi bugun barcha fakultetlar o'z iqtidorli tengdoshlarini tanib olishdi. Bundan tashqari ikkinchi shartda sahna ko'rinishlari ham namoyish etildi. Natija yomon emas barcha ishtirokchilar o'z fakultetini munosib himoya qila olishdi. Tadbir a'lo darajada o'tdi desak adashmaymiz.



**Institut yoshlar ittifoqi boshlang'ich tashkiloti axboroti**

**Institut matbuot xizmati rahbari Rahimboy Jumaniyozov**